

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**IBROGIMOV SHERZODBEK XALIMJON O‘G‘LI**

**HUDUDLARNING “YASHIL IQTISODIYOT” ASOSIDA XAVFSIZ  
RIVOJLANISHNING STRATEGIK USTUVORLIGINI OSHIRISH**

**08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Urganch - 2025**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc) экономических наук**

**Contents of dissertation abstract of the doctor (DSc) in economic sciences**

**Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o‘g‘li**

Hududlarning “Yashil iqtisodiyot” asosida xavfsiz rivojlanishining strategik ustuvorligini oshirish.....5

**Иброгимов Шерзодбек Халимжон оглу**

Повышение стратегического приоритета безопасного развития регионов на основе «Зеленой экономики» в развитии экономики региона .....37

**Ibrogimov Sherzodbek Halimjon ogli**

Enhancing the strategic priority of the safe development of regions based on the “Green economy” in the development of the regional economy.....73

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....77

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**IBROGIMOV SHERZODBEK XALIMJON O‘G‘LI**

**HUDUDLARNING “YASHIL IQTISODIYOT” ASOSIDA XAVFSIZ  
RIVOJLANISHINING STRATEGIK USTUVORLIGINI OSHIRISH**

**08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Urganch - 2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.DSc/Iqt945 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi ([www.urdu.uz](http://www.urdu.uz)) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Rasmiy opponentlar:**

**Ruzmetov Baxtiyar**

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Qodirov Abdurashid Madjitovich**

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yavmutov Dilshod Shoyimardonkulovich**

iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg‘ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini beruvchi DSc.03/27.09.2024.I.55.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_: \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko‘chasi 14-uy. Tel.: (99862) 224–67–00; faks (99862) 224–57–00; e– mail: [info@urdu.uz](mailto:info@urdu.uz)

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot–resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko‘chasi 14 uy. Tel.: (99862) 224–67–00, e–mail: [arm@urdu.uz](mailto:arm@urdu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**I. S. Abdullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**T. J. Raximov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., dotsent

**B. Ruzmetov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda so‘nggi o‘n yilliklarda ekologik muammolarning kuchayishi global darajada yangi iqtisodiy model – yashil iqtisodiyot konsepsiyasini rivojlantirish zaruratini yanada dolzarb masalaga aylantirdi. “BMT ma’lumotlariga ko‘ra, 2030-yilga kelib barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun dunyo miqyosida yiliga kamida 2,5 trillion AQSh dollari hajmidagi investitsiya talab etilishi qayd etilgan<sup>1</sup>. Shu bilan birga, Xalqaro Mehnat Tashkiloti prognozlariga ko‘ra, yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida 2030-yilgacha 24 milliondan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratilishi kutilmoqda<sup>2</sup>. Bu esa, bir tomondan, tabiiy resurslardan tejamkor va oqilona foydalanish hamda atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, hududiy iqtisodiyotlarning inqirozlarga nisbatan barqarorligini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta’minlash va yangi rivojlanish paradigmasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda global iqlim o‘zgarishi, ekologik muammolarning chuqurlashuvi va tabiiy resurslardan samarasiz foydalanish sharoitida hududlarning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash hamda barqaror rivojlanishini ta’minlash dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu bilan birga, hududiy rivojlanish strategiyalarida iqtisodiy o‘shishni ekotizim muvozanati bilan uyg‘unlashtirish, tabiatga salbiy ta’sirni minimallashtirish va yashil texnologiyalarni keng joriy etish muhim vazifa sifatida belgilanmoqda. “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi bugungi kunda hududiy taraqqiyotning innovatsion modeli sifatida shakllanib, nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlaydi, balki mahalliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, resurslardan samarali foydalanish, energiya tejamkor tizimlarni joriy etish va yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali ijtimoiy barqarorlikka hissa qo‘shmoqda. Shuningdek, yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni hududlarning iqtisodiy tizimini inqiroz holatlariga nisbatan bardoshli qilish, aholining turmush sifati va ekologik xavfsizligini oshirishga xizmat qilmoqda. BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar hisobotlarida ta’kidlanganidek, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish hududlarning strategik ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, global barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda hal qiluvchi omil sifatida e’tirof etilmoqda.

Yangi O‘zbekiston sharoitida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini iqlim o‘zgarishlariga moslashtirish, uglerod neytralligiga erishish va “Yashil” energetika ulushini oshirish strategik vazifa sifatida kun tartibida turibdi. Zero, tabiiy resurslardan tejamkor foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini ekologik mezonlarga mos ravishda modernizatsiya qilish va atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash hamda hududlarning barqaror rivojlanishini ta’minlashning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Shu sababli, “Yashil iqtisodiyot” tamoyillariga asoslangan holda resurslardan oqilona foydalanish, “Yashil” energetika salohiyatini kengaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash O‘zbekiston taraqqiyotining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

---

<sup>1</sup> United Nations (2015). Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. New York: UN.

<sup>2</sup> International Labour Organization (2018). World Employment and Social Outlook 2018: Greening with Jobs. Geneva: ILO.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-son “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2024-yil 23-iyuldagi PF-106-son “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida iqlim kengashini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019-yil 04-oktabrdagi PQ-4477-son “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 02-dekabrdagi PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-sentyabrdagi 514-son “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonini boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 25-oktyabrdagi 561-son “Milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, ma’muriy hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi**<sup>3</sup>. Jahonda yashil iqtisodiyotning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, barqaror rivojlanish orqali hududlar iqtisodiyotini samarali boshqarish uslubiyotini

---

<sup>3</sup> Dissertatsiya ishida quyidagi ilmiy tadqiqotlar va iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlaridan foydalanildi: Адамович М. Зеленый курс, зеленый рост и зеленая экономика как средства поддержки достижения целей устойчивого развития. Устойчивость. Том 14, Выпуск 10.; Алинов М.Ш.. Основы зелёной экономики: учебное пособие / М.Ш.Алинов - Алматы: "Бастау" баспасы, 2016. - 340 с.; Annual report 2012.; Бобылев, С. Н. «Зеленая» экономика и модернизация. Эколого-экономические основы устойчивого развития. – 2012. – № 60. – 90 с.; Василенко В.А. Устойчивое развитие регионов: подходы и принципы. – Новосибирск: ИЭОПП СО РАН, 2008. – 208 с.; Green Growth, Resources and Resilience: Environmental Sustainability in Asia and the Pacific // ESCAP. – 2012.; Давлетова М.М.. Формирование и развитие “зеленой” экономики в условиях стран Центрально-Азиатского региона. Алматы 2019.; Зоимонова Э.М. Стратегия перехода к «зеленой» экономике: опыт и методы измерения. – М. 2020.; Zhang, D., Mohsin, M., Rasheed, A. K., Chang, Y., Taghizadeh-Hesary, F. (2021). Public spending and green economic growth in BRI region: mediating role of green finance. Energy Policy, 153, 112256.; Марьян Е.В. «Зеленая» экономика, как фактор устойчивого развития / Е.В. Марьян // Вопросы устойчивого развития общества. – 2020. – №2. – С. 418–423.; Moore J. (1996). The Death of Competition: Leadership and strategy in the age of business ecosystems. New York: Harper Business.; Ocampo J. A. The Transition to a Green Economy: Benefits, Challenges and Risks from a Sustainable Development Perspective Summary of Background Papers. Columbia University. – P. 94.; The Green Economy Pocketbook: The case for action. – London : Green Economy Coalition, 2012. – 58 p.; Indicators of Sustainable Development: Guidelines and Methodologies. UN Commission on Sustainable Development. 2015. N.Y. – P. 310.; Inclusive Green Growth The Pathway to Sustainable Development/ The World Bank. May, 2012.; Доклад о мировом развитии 2022. Выборочные показатели мирового развития. Предварительные оценки Всемирного банка. Вес мир. М.: 2023. – 372 с.

takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy-amaliy tadqiqotlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi (UNDP); Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP), Savdo va taraqqiyot bo'yicha Konferensiyasi (UNCDAT), Evropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD), Jahon banki guruhi (WBG); Xalqaro Valyuta fondi (IMF), Osiyo taraqqiyot banki (ADB), Xalqaro Mehnat tashkiloti (ILO), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), Barqaror rivojlanish xalqaro instituti (IISD); Jahon banki huzuridagi "Uglerod aktivlari transformativ fondi" (TCAF), Global kelishuv tashabbusi (UN Global Kompakt), Yashil o'sish global instituti (GGGI), Yashil iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash hamkorligi (RAGE), Yashil o'sish to'g'risidagi bilimlar platformasi (GGKP), Yashil iqtisodiyot koalitsiyasi (GES), Fransiya taraqqiyot agentligi (AFD) kabi nufuzli tashkilotlar tomonidan amalga oshirilmoqda.

Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida mintqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishni takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar: tiklanadigan energiya manbalarini o'zlashtirish uchun investitsiyalarning daromadlilikini oshirish (Xalqaro energetika agentligi va London imperiya kolleji, Buyuk Britaniya), Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning samarali yo'llari (Barqaror rivojlanish sohasi ma'lumotlari bo'yicha global hamkorlik - Global Partnership for Sustainable Development Data, AQSh), yashil o'sish va barqaror rivojlanish metodologiyasini takomillashtirish (BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi - UNEP, "Dual Citizen" xalqaro agentligi, AQSh); dekorbanizatsiya jarayonlarining samaradorligini oshirish (Yashil o'sish global instituti - GGGI, Janubiy Koreya). hudulari iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish istiqbollari va investitsion imkoniyatlarni oshirish (O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari ilmiy tadqiqot markazi, Urganch davlat universiteti, Namangan davlat texnika universiteti, O'zbekiston) bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Iqtisodiy adabiyotlarda "Yashil iqtisodiyot", hududlarning havfsiz rivojlanish masalalari uncha uzoq bo'lmagan davrdan boshlab tadqiq qilib kelinmoqda.

Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borgan xorijiy olimlardan R.Nisbet, M.Kahler, E.F.Schumacher, P.Hawken, N.Stern, A.Sen, L.Brown, W.H.McNeil, Chee Yoke Ling., V.G.Potapenko<sup>4</sup> MDH davlatlari olimlari tomonidan bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borganlar sifatida Ю.В.Якобец, Н.М.Лукин, С.Д.Бобылев, С.В.Соловьева, В.И.Данилов-Данильян, Б.В.Буркинский, Т.П.Галушкина, А.С.Пигу, Б.В.Галушкина, Т.П.Реутов, В.Ойкен, Е.А.Бородина, Э.Н.Кузьбожев, Б.М.Данилишин, Т.С.Клебанова,

---

<sup>4</sup> Nisbet R. Progress: the history of ideas / R.Nisbet. - M. : IRISEN, 2007. - 557 p; Kahler M. Economic security in an Era of Globalization: Definition and Provision : [presentation to the Conference on Globalization and Economic Security in Asia; Schumacher, E.F. (1973). Small is Beautiful: Economics as if People Mattered. London: Blond & Briggs. pp. 15-22.; Hawken, P. (1993). The Ecology of Commerce: A Declaration of Sustainability. New York: Harper Business. pp. 45-52.; Stern N. (2006). The Economics of Climate Change: The Stern Review. Cambridge: Cambridge University Press. pp. 65-72; Sen. A. (1999). Development as Freedom. Oxford: Oxford University Press. pp. 166-173.; Brown L. (2003). Plan B: Rescuing a Planet under Stress and a Civilization in Trouble. New York: W.W. Norton & Company. pp. 33-39.; McNeil W.H. Globalization: Long Term Process or New Era in Human Affairs? / W.H. McNeil // New Global Studies. - 2008. - Vol. 2; Chee Yoke Ling. 2010. "Biodiversity Convention adopts landmark decisions", in Third World Resurgence, Oct/Nov. 2010.; Potapenko V. G. Geochemical aspect of landscape-ecological assessment of geosystems under conditions of intensive nature management / V. G. Potapenko // Problems of agricultural radiology / [ed. by B. S. Prister]. - 2006. - Issue 4. - pp. 66-77.;

З.В.Герасимчук, Л.Р.Руснак, Т.В.Иванова, В.Леонтьев<sup>5</sup>lar va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

O'zbekistonlik A.V.Vahobov, SH.X.Hojiboqiev, T.K.Iminov, A.Isadjanov, E.A.Mo'minova, kabi olimlarning tadqiqotlarida "yashil iqtisodiyot"ning xususiyatlari, uning barqaror rivojlanishdagi ahamiyati masalalari bayon qilingan. N.To'xliyev, T.M.Axmedov, A.T.Yusupov, A.M.Sodiqov, A.A.Soliyev, A.A.Qayumov, F.Egamberdiyev, A.A.Abdusalyamov, A.B.Nizomov, B.Ro'zmetov, D.SH.Yavmutov, F.M.Raxmatullayeva, A.A.Qulmatov<sup>6</sup> kabi iqtisodchi olimlar o'z ilmiy tadqiqotlarida mintaqalar iqtisodiyotini samarali tashkil etish, barqaror va kompleks rivojlantirish masalalarining nazariy-metodologik asoslarini, hududlarda ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish, hududning resurs salohiyatidan samarali foydalangan holda atrof-muhit muhofazasini iqtisodiy jihatdan to'g'ri tashkil etish masalalarini tadqiq etishgan.

---

<sup>5</sup>Якобец Ю.В. (2010). Зеленая экономика и инновационное развитие России. Москва: ИНЭС. стр. 28–35.; Лукин Н.М. (2014). Экологическая экономика: теория и практика. Санкт-Петербург: СПбГУЭФ. стр. 41–48.; Бобылев С.Д., Соловьева, С.В. (2011). Зеленая экономика: глобальные тренды и российская практика. Москва: МНЭПУ. стр. 12–19.; Данилов-Данильян В.И. (2009). Экологическая безопасность и устойчивое развитие. Москва: Наука. стр. 55–61.; «Зеленая» стратегия региона: [монография]/Б.В.Буркинский, Т.П.Галушкина, В. ЕСТЬ. Реутов, С.А.К.Харичков [и др.]; по науч. ред. Б.В.Буркинського, Т.П.Галушкиной. – Саки: ЧП «Предприятие Феникс», 2011. – 448 с.; 49.; Пигу А. С. Экономическая теория благосостояния : [в 2 т.] / А. С. Пигу. – М. : Прогресс, 1985. – Т. 2. – 324 с.; Зеленая экономика сквозь призму трансформационных сдвигов в Украине / Буркинский Б. В., Галушкина Т. П., Реутов В. ЕСТЬ: [монография]. ИПРЕЭД НАН Украины; Саки: ЧП «Предприятие «Феникс», 2011. – 348 с. Ойкен В. Основные принципы экономической политики / В. Ойкен. – М. : Прогресс, 2005. – С. 298.; Бородин Е. А. Роль экономических кластеров в повышении конкурентоспособности регионов РФ : автореф. дисс. на соискание науч. степени канд. экон. наук : спец. 08.00.05 «Экономика и управление народным хозяйством» / Е. А. Бородин. – Волгоград, 2008.; Кузьбожев Э. Н. Экономическая география и регионалистика / Э. Н. Кузьбожев, И. А. Козьева, М. Г. Световцева : [учеб. пособ.]. – М. : КноРус, 2005. – С. 44-45.; Переход к устойчивому развитию: глобальный региональный и локальный уровни. Зарубежный опыт и проблемы России : к 10-летию Конференции ООН по окружающей среде и развитию, Рио-де-Жанейро, 1992 г. / [Н. Ф. Глазовский, Г. В. Сдасюк]. – М. : КМК, 2002. – 444 с.; Данилишин Б. М. Экологическая основа политики устойчивого развития: Монография. – Донецк: «ОО «Юго-Восток, ЛТД», 2008. – 256 с.; Клебанова Т.С. Экономическая безопасность региона: анализ, оценка, прогнозирование: [монография] / Т.С. Клебанова, В.С. Пономаренко, Н.Л. Чернова. – Х. : ИНЖЕК, 2004. – 411 с.; Герасимчук З.В. Научные основы исследования экологической безопасности как фактора устойчивого развития / З.В. Герасимчук // Экономика Украины. – 2004. - №2. – С. 63-69.; Руснак Л.Р. Факторы угроз внешней среды экономической безопасности предприятия/Л.Р. Руснак // Сборник научных работ по актуальным проблемам экономических наук «Экономическая наука XXI века: реалии и перспективы.-Научная организация «Перспектива».- 2013.- Часть II. – 125-129 с.; Иванова Т. В. Экологическая безопасность как составляющая системы государственного регулирования природопользования / Т. В. Иванова // Инвестиции: практика и опыт. – 2011. – № 1. – С. 104-107.; Леонтьев В. Экономические эссе. Теории, исследования, факты и политика. - М.: Политиздат, 1990. - 415с., с. 318

<sup>6</sup> To'xliyev N.. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya. – Т.: О'ЗМЕ. 2020, - 204 б.; Ахмедов Т.М. Регулирование территориальной организации производительных сил и комплексного развития регионов Узбекистана. - Т.: Фан, 1995. - 231 с.; Юсупов А. Т. Развитие и размещение производства товаров народного потребления региона: на материалах промышленности Узбекистана: диссертация доктора экономических наук: / Академия наук Республики Узбекистан. - Ташкент, 1991. - 298 с.; Садиков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика. – Т.: Иктисод-молия, 2005. – 279 с.; Ahmedov E.A. va b. - Mintaqaviy iqtisodiyot. Т., 2003. – 304 б.; Qayumov A.A., F.T.Egamberdiyev va b. - Mintaqaviy iqtisodiyot. Т., 2004. – 116 б.; Рўзметов Б. Комплексное развитие региона в условиях углубления экономических реформ. Автореф. дис. д.э.н. –Т.: 1997. – 41 с.; Низамов А. Б. Экономический механизм восстановления эквивалентности обмена между сельскохозяйственными и промышленными отраслями (на примере Бухарской области Узбекистана). Автореферат на соис. уч. степ. к.э.н. – М.: 1993. – 17 с.; Yavmutov.D.SH. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish sharoitida mintaqqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. (DSc) ilmiy daraja olish uchun diss. Avtoreferati. BuxDU, 2024y.; Raxmatullayeva.F.M. Globallashuv sharoitida O'zbekiston Respublikasi mintaqalari iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni takomillashtirish i.f.d. (DSc) ilmiy daraja olish uchun diss. Avtoreferati. BuxDU, 2025y.; Qulmatov A.A.. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqaror rivojlanish omillari. Iqtisod va moliya. 2020, 2(134). – В. 152-158.;

Yuqoridagi olimlarning fanning, ilmiy sohaning rivojlanishiga qo‘shgan hissasini e‘tirof etgan holda ta’kidlaymizki, O‘zbekiston sharoitida, ayniqsa, hududlarni barqaror rivojlanishida hududiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda ekologik muammolarni bartaraf qilishda, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda “Yashil iqtisodiyot” masalalarining ilmiy-uslubiy asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmagan, uni joriy qilishning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari tadqiq qilinmagan.

Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu masala yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar tahlili Hududlarni “Yashil iqtisodiyot” asosida xavfsiz rivojlanishning strategik ustuvorligini oshirish, Jamiyat iqtisodiy rivojlanishining “Yashil” o‘zgarishlarida xavfsizlik omillari va atrof-muhit o‘zgarishlari sharoitida iqtisodiy xavfsiz rivojlanishning uslubiy asoslari hududlarni barqaror rivojlantirishda ekologik va iqtisodiy jihatdan resurstejamkor ishlab chiqarish va innovatsiyalardan foydalanish amaliyotini yanada kengaytirish, iqtisodiy o‘shishda ekologik cheklovlarni tizimli modellashtirish hamda iqtisodiyotning ekologik transformatsiyasi sharoitida ijtimoiy o‘shishni indikativ baholash metodologiyasi. Muammoning dolzarbligi, iqtisodiy adabiyotlarda yetarlicha o‘rganilmaganligi, kutilayotgan ilmiy natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyatga egaligi ushbu mavzuni tadqiqot obyekti sifatida tanlashga asos bo‘ldi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liq bo‘lib “Hududlarni “Yashil iqtisodiyot” asosida xavfsiz rivojlanishning ustuvorligini oshirish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekiston Respublikasi hududlarni “Yashil iqtisodiyot” asosida xavfsiz rivojlanishning strategik ustuvorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

“Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining shakllanishiga asos bo‘lgan nazariy hamda tarixiy shart-sharoitlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish va ularning hududiy rivojlanishdagi ahamiyatini aniqlash;

Global ekologik o‘zgarishlar jarayonida iqtisodiy xavfsizlik masalalarini yoritish, milliy va hududiy darajada yuzaga keladigan xatarlarni baholash hamda ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish;

Jamiyatning barqaror rivojlanishida “Yashil” transformatsiyaning xavfsizlik omillarini ilmiy asosda aniqlash va ularning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka ta’sirini tadqiq etish;

Atrof-muhitdagi o‘zgarishlar sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning uslubiy asoslarini shakllantirish, ekologik cheklovlarni tizimli modellashtirish imkoniyatlarini ochib berish;

Iqtisodiyotning ekologik transformatsiyasi jarayonida ijtimoiy o‘shishni baholashning indikativ metodologiyasini ishlab chiqish hamda uni milliy iqtisodiy xavfsizlik strategiyasiga integratsiya qilish;

Davlat iqtisodiy xavfsizligining obyekti sifatida hududiy, milliy va global ekologik omillarni tizimli ravishda o‘rganish hamda ularning o‘zaro ta’sir mexanizmini aniqlash;

“Yashil iqtisodiyot” tamoyillari asosida davlat iqtisodiy xavfsizlik siyosatini shakllantirishning innovatsion yondashuvlarini ishlab chiqish va boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash;

Ekologik o‘zgarishlar sharoitida iqtisodiy xavfsizlikning strategik ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, milliy darajada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan huquqiy va institutsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish.

atrof-muhit o‘zgarishlari sharoitida Namangan viloyati yalpi hududiy mahsulot hajmining 2025-2030 yillarga mo‘ljallangan ko‘p omilli prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish sharoitida Namangan viloyati hokimligi hamda uning hududiy boshqarmalari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi hududlarida “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish sharoitida hududlarda iqtisodiyotini xavfsiz rivojlantirishda vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida guruhlash, tizimli yondashuv, nazariy va amaliy o‘rganish, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil, iqtisodiy-matematik usullari qo‘llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

atrof-muhitni tartibga solish, ekologik texnologiyalarni joriy etish, iqtisodiyotning barcha sohalariga qamrovli institutsional islohotlarni o‘tkazish va ularni tizimlashtirish bo‘yicha “Yashil iqtisodiyot”ning asosiy tamoyillari taklif etilgan;

hududlarning Yashil iqtisodiyot asosida xavfsiz rivojlantirishda ekologik o‘zgartirish imkoniyatlarini klasterli tahlil qilishning tarkibiy modellashtirish mexanizmi taklif etilgan;

hududlarning Yashil iqtisodiy faoliyat turlarining potensial rentabelligini aniqlash, potensial xavfli ishlab chiqarishlarni hududiy tashkil etishni takomillashtirish, barcha darajadagi byudjetlarning atrof-muhitni muhofaza qilish xarajatlari darajasini aniqlash uchun texnogen va tabiiy favqulodda vaziyatlar oqibatlaridan yetkazilgan zararlar yig‘indisi ( $B_Z = P_Z + R_Z$ ) bilan baholash taklif etilgan;

Namangan viloyati bo‘yicha tabiiy va iqtisodiy hududiy tizimlarni iqtisodiy va ekologik baholashda Python dasturi “Namangan Gis Map” tahlili yordamida (Qulay 1,00-1,30; Qoniqarli 1,31-1,60; Noqulay - 1,61-1,90; Qoniqarsiz 1,91-2,20; va Xavfli >2,21) ekologik vaziyatning sintetik hisoblangan koeffitsiyentlari asosida klasterlangan;

atrof-muhit o‘zgarishlari sharoitida Namangan viloyati yalpi hududiy mahsulot hajmining 2025-2030 yillarga mo‘ljallangan ko‘p omilli prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

iqtisodiyotning ekologik o‘zgarishi tahliliga uslubiy yondashuvlarning tarkibiy diagrammasi ishlab chiqilgan;

iqtisodiyotni ekologik o‘zgartirish imkoniyatlarini klasterli tahlil qilishning tarkibiy modellashtirish sxemasi ishlab chiqilgan va asoslangan;

ekologik omillarni inobatga olgan holda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashda yangi indikatorlardan foydalanish imkoniyati yaratildi;

“Yashil iqtisodiyot” asosida iqtisodiy xavfsizlikni baholash va boshqaruv qarorlarini asoslash bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi hamda amaliyotchi mutaxassislar faoliyatida qo‘llanishi mumkin;

iqtisodiy o‘shish jarayonida ekologik cheklovlarni hisobga olish bo‘yicha taklif etilgan yondashuvlar hududiy va milliy darajadagi prognozlash hamda rejalashtirish amaliyotiga joriy qilinadi;

iqtisodiyotning ekologik transformatsiyasi sharoitida ijtimoiy barqarorlikni o‘lchashning yangi ko‘rsatkichlari ishlab chiqilib, ularning amaliy qo‘llanilishi hududlarning xavfsiz rivojlanishiga xizmat qiladi;

Davlat iqtisodiy xavfsizlik siyosatida ekologik omillarni hisobga olish, ularni huquqiy jihatdan mustahkamlash va institutlar faoliyatiga tatbiq etish bo‘yicha amaliy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi;

“Yashil iqtisodiyot” tamoyillarini integratsiyalash asosida iqtisodiy xavfsizlik sohasida samarali boshqaruv mexanizmlari shakllantiriladi.

**Olingan natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil jarayonida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha mas’ul dasturi (UNEP), O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi ma’lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot jarayonida olingan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan yashil iqtisodiyotga o‘tish, mamlakatimiz mintaqalarini barqaror rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish, yashil iqtisodiyot hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlarining qamrov darajasini kengaytirish va ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarida manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni Hududlarning “Yashil iqtisodiyot” asosida xavfsiz rivojlanishning strategik ustuvorligini oshirish, jumladan, Yashil iqtisodiyotni samarali joriy etish va mintaqalarni barqaror rivojlantirishga mo‘ljallangan davlatning maqsadli dasturlari, strategiyalari va konsepsiyalarini ishlab chiqishda, oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Makroiqtisodiyot”, “Mintaqaviy iqtisodiyot”, “Yashil iqtisodiyot”, “Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti”, “Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish” “Iqtisodiy xavfsizlik” fanlarining ishchi-o‘quv dasturlarini takomillashtirish va talabalarga ta’lim berish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Hududlarning “Yashil iqtisodiyot” asosida xavfsiz rivojlanishning strategik ustuvorligini oshirish borasida ishlab chiqilgan takliflar asosida:

atrof-muhitni tartibga solish, ekologik texnologiyalarni joriy etish, iqtisodiyotning barcha sohalariga qamrovli institusional islohotlarni o‘tkazish va ularni tizimlashtirish bo‘yicha “Yashil iqtisodiyot”ning asosiy tamoyillari taklif Namangan viloyati hokimligi tarkibidagi korxonalar va tashkilotlar amaliyotiga joriy qilingan (Namangan viloyati hokimligining 2024-yil 25-oktyabrdagi 3/24-720-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklif natijasida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan — quyosh, shamol va biogaz texnologiyalaridan foydalanish orqali viloyatda karbonat gazlar chiqindisi kamaydi. Bu esa ekologik barqarorlikni ta’minlab, havo sifatini yaxshilash imkonini berdi;

hududlarning Yashil iqtisodiyot asosida xavfsiz rivojlantirishda ekologik o‘zgartirish imkoniyatlarini klasterli tahlil qilishning tarkibiy modellashtirish mexanizmi taklifi Namangan viloyati hokimligi tarkibidagi korxonalar va tashkilotlar amaliyotiga joriy qilingan (Namangan viloyati hokimligining 2024-yil 25-oktyabrdagi 3/24-720-son ma’lumotnomasi). Ushbu baholash tizimini joriy etish Namangan viloyatida iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash, ekologik muvozanatni saqlash va ijtimoiy farovonlikni oshirish uchun ilmiy asos yaratilgan;

hududlarning Yashil iqtisodiy faoliyat turlarining potensial rentabelligini aniqlash, potensial xavfli ishlab chiqarishlarni hududiy tashkil etishni takomillashtirish, barcha darajadagi byudjetlarning atrof-muhitni muhofaza qilish xarajatlari darajasini aniqlash uchun texnogen va tabiiy favqulodda vaziyatlar oqibatlaridan yetkazilgan zararlar yig‘indisi ( $BZ=PZ+RZ$ ) bilan baholash taklifi Namangan viloyati hokimligi tarkibidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyatiga joriy qilingan (Namangan viloyati hokimligining 2024-yil 25-oktyabrdagi 3/24-720-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklif natijasida potensial zarar indeksleri ( $PZ=2.31$ ) va real zarar ( $RZ=1.89$ ) yig‘indisini hisoblash orqali Namangan viloyatida ekologik xavf darajasi aniqlandi, bu esa sanoat obyektlarini joylashtirishda xavfsizlik zonalarini belgilashga imkon berdi;

Namangan viloyati bo‘yicha tabiiy va iqtisodiy hududiy tizimlarni iqtisodiy va ekologik baholashda Python dasturi “Namangan Gis Map” tahlili yordamida (Qulay 1,00-1,30; Qoniqarli 1,31-1,60; Noqulay - 1,61-1,90; Qoniqarsiz 1,91-2,20; va Xavfli >2,21) ekologik vaziyatning sintetik hisoblangan koeffitsiyentlari asosida klasterlangan taklifi Namangan viloyati hokimligi tarkibidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyatiga joriy qilingan (Namangan viloyati hokimligining 2024-yil 25-oktyabrdagi 3/24-720-son ma’lumotnomasi). Ushbu yangilik natijasidan Namangan viloyati hududlarning tabiiy va iqtisodiy hududiy tizimlarni ekologik bahosi turli ranglarda berilgan bo‘lib, qizil — juda yuqori antropogen bosim (Namangan shahri, Chust, To‘raqo‘rg‘on), sariq-qizil — yuqori (Yangiqo‘rg‘on, Pop, Uychi), sariq — o‘rta (Kosonsoy, Norin, Uchkurgan) va yashil — past (Mingbuloq, Chortoq tumanlari) holatlar bilan klasterlash Namangan viloyatining tabiiy va iqtisodiy tizimlarini raqamli tahlil qilish, ekologik xavf darajasini ilmiy baholash hamda barqaror rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashga xizmat qildi;

atrof-muhit o‘zgarishlari sharoitida Namangan viloyati yalpi hududiy mahsulot hajmining 2025-2030 yillarga mo‘ljallangan ko‘p omilli prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan va Namangan viloyati hokimligi faoliyatiga joriy qilingan (Namangan viloyati hokimligining 2024-yil 25-oktyabrdagi 3/24-720-son ma’lumotnomasi).

Mazkur yangilik natijasidan kelgusi istiqbolda Namangan viloyatida iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni saqlashga hamda hududlarning 2030 yilgacha raqobatbardosh rivojlanish strategiyasini shakllantirishga ilmiy asos yaratdi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta yakka mualliflikda monografiya, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 12 tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

**Tadqiqot ishining tuzilishi:** Tadqiqot ishi kirish, beshta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 221 betni tashkil etdi.


## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan bo‘lib, mamlakat fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga bog‘liq holda shakllanishi ko‘rsatib o‘tilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tarkibiy tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.

Dissertatsiyaning **Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining nazariy asoslari** deb nomlangan birinchi bobida “Yashil iqtisodiyot”ning shakllanishi va evolyutsiyasining nazariy-metodologik tamoyillari, Global ekologik o‘zgarishlar sharoitida mintaqaviy iqtisodiyot xavfsizligini ta‘minlash mexanizmlari hamda “Yashil” transformatsiya jarayonida hududiy iqtisodiy tizimlarning xavfsizlik va barqarorlik omillari to‘g‘risida bayon etilgan.

“Yashil iqtisodiyot”ning nazariy asoslarining zamonaviy talqini Yashil iqtisodiyot instituti (Buyuk Britaniya) olimlarining global assotsiatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu institut direktori M.Kennetning fikricha, “yashil iqtisodiyot” fanni faqat “iqtisodiy odam”ning miqdoriy o‘lchovlaridan qaytaradi va murakkab hamda fanlararo usul va vositalarni qo‘llash orqali asosiy oqim chegaralarini kengaytiradi. Mohiyatan, iqtisodiy siyosatni asoslashda mutlaqo yangi yondashuvlardan foydalanish taklif etilmoqda. “Yashil iqtisodiyot”ning ustuvorligi ham soddalashtirilgan miqdoriy statistik ma‘lumotlarni olish bilan emas, balki butun insoniyat farovonligi, yer yuzida va butun Yer sayyorasida biologik xilma-xillikni saqlash bilan belgilanadi. Odatda “iqtisodiy o‘shish” deb ataladigan yashirin halokat – “o‘shish” (Growthism) fosh qilinadi va tabiiy resurslar hamda tabiiy ekotizimlardan foydalanishga asoslangan haqiqiy o‘shish ta‘riflari aniqlanadi.

“Yashil” atamasi ko‘pincha atrof-muhit iqtisodiyotiga nisbatan noto‘g‘ri ishlatiladi. Darhaqiqat, “yashil iqtisodiyot” ning asosiy elementi - bu ma‘lum bo‘lgan Yer, uning mavjudligi har qanday nazariy konstruktsiyalar va amaliy harakatlarning boshlang‘ich nuqtasidir. “Yashil iqtisodiyot” ekologik iqtisodiyotning asosiy tamoyillaridan boshlanadi, lekin uni rivojlantiradi va undan uzoqroqqa chiqib, bir butunning alohida jihatlari sifatida bir vaqtning o‘zida ijtimoiy va ekologik adolatga erishishga intiladi. Yashil iqtisod bir vaqtning o‘zida qashshoqlik, global iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi va turlarning yo‘q qilinishi bilan tenglik doirasida kurashadigan yechim izlaydi. “Yashil iqtisodiyot”ning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat (1-rasm):



1-rasm. “Yashil iqtisodiyot”ning asosiy tamoyillari<sup>7</sup>

Tahlil qilinayotgan modelning asosiy kuchi uning tizimli yondashuvda, ya’ni alohida tamoyillarning o‘zaro bog‘liqligida namoyon bo‘ladi. Masalan, innovatsion-texnologik tamoyil resurslar samaradorligi va chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan bo‘lsa-da, uning amaliy natijalari moliyaviy rag‘batlantirishlar va “yashil” standartlar (Iqtisodiy-moliyaviy va Huquqiy tamoyillar) bo‘lmasida, shuningdek, malakali kadrlar va jamoatchilik qo‘llab-quvvatlashi (Ijtimoiy-ta’limiy tamoyil) bo‘lmasida cheklanib qoladi. Shuningdek, Tashkiliy-boshqaruv bloki butun tizimning barqarorligi va adaptivligini ta’minlovchi “feedback” (og‘zakorlik) mexanizmi vazifasini bajaradi. Demak, “yashil iqtisodiyot”ga muvaffaqiyatli o‘tish - bu nafaqat yangi texnologiyalarni qo‘llash, balki ijtimoiy-iqtisodiy tizimni uzoq muddatli ekologik barqarorlik tamoyillari asosida qayta qurishni nazarda tutadi.

“Yashil iqtisodiyot” qanday qilib tanqislikning yaratilishi Yerning cheklangan resurslari kontekstida qiymat yaratilishini anglatganligi va o‘shish nazariyasi ommaviy iste’molni oshirishning hozirgi iqtisodiy maqsadiga qanday olib kelganligi haqidagi savolni ko‘taradi va o‘rganadi. Shu sababli, “yashil iqtisodiyot” an’anaviy iqtisodiyotga ekologik, adolatli, ijtimoiy va ekologik javobgarlik omillarini kiritadi. Ushbu g‘oyalarning rivojlanishi iqtisodiy fan va falsafaning farovonlik iqtisodiyoti, feministik iqtisod, ekofeminizm, ekosotsializm, atrof-muhit iqtisodiyoti va ekologik iqtisodiyot kabi bog‘liq sohalarida o‘z aksini topdi hamda past uglerodli iqtisod va

<sup>7</sup> Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib muallaf ishlanmasi

resurslar samaradorligi, xususan, korrupsiyaga qarshi kurash va boshqalar kabi yangilanishlar boshlandi.

Global Yashil bitim bo'yicha ma'lum takliflar atrof-muhit muammolari bo'yicha ma'lumot tarqatuvchi, barqaror jamiyatni yaratish strategiyalarini ishlab chiqadigan va global isish, qayta tiklanmaydigan resurslardan ortiqcha foydalanish va qashshoqlikka qarshi kurashuvchi ekologik tadqiqot tashkiloti Worldwatch instituti tomonidan tayyorlangan. Ushbu rejaning mazmun-mohiyati yangi, ekologik toza iqtisodiy modelga o'tish va davlat boshqaruvini global isloh qilishdan iborat. Uning fikricha, bu qashshoqlik darajasini pasaytiradi va ocharchilikni to'xtatadi, mehnatni adolatli taqsimlash tizimini va uning natijalarini o'rnatadi, ekologik ofat xavfini kamaytiradi<sup>8</sup>.

## 1-jadval

### “Yashil iqtisodiyot”ni amalga oshirish chora-tadbirlari<sup>9</sup>

<b>Transformatsiya yo'nalishi</b>	<b>“Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini amalga oshirish uchun transformatsion tamoyillar va chora-tadbirlar zarur</b>
Barqaror rivojlanish yo'llarini ishlab chiqish	- davlatlarning hayotiyligi va muvaffaqiyatini aniqlash va o'lchashni o'zgartirish (YaIM ko'rsatkichi ekotizim xizmatlari va bioxilma-xillik ko'rsatkichlari bilan to'ldirilishi kerak)
Tabiiy kapitalga investitsiya qilish	- tabiiy xizmatlarni ko'rsatish va iqlimni tartibga solish uchun barcha ekotizimlarda qo'riqlanadigan tabiiy hududlar ulushini 15% gacha oshirish; - o'rmonlarni muhofaza qilishni, o'rmonlarni sertifikatlashni kuchaytirish; - suvdan ortiqcha foydalanishni to'xtatish; - ortiqcha va ekotizimni buzuvchi baliq ovlashni tugatish; - biomahsuldorlikka sarmoya kiritish, degradatsiyaga uchragan yerlarni tiklash orqali biomahsuldorlikni oshirish, boshqaruvni takomillashtirish, ekinlar hosildorligini oshirish va boshqalar; - atrof-muhitni muhofaza qilish standartlariga muvofiq ishlab chiqarilgan mahsulotlarni taqsimlash; - biologik xilma-xillik va ekotizim xizmatlarini baholash (hukumatlar biologik xilma-xillik va ekotizim xizmatlarining iqtisodiy qiymatini baholashi kerak, keyin ularni saqlashga yo'naltirilgan mablag'lar ushbu tabiiy xizmatlarning yo'qolishi oqibatlarini bartaraf etish uchun zarur bo'lgan mablag'lardan sezilarli darajada kamroq ekanligi ayon bo'ladi)
Oziqlanish muammosini hal qilish	- go'sht va sut mahsulotlarini iste'mol qilishni kamaytirish, sog'lom organik oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish
Yer ajratish va yerdan foydalanishni rejalashtirish	- iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy barqarorlik va ekologik va resurslar xavfsizligini hisobga olgan holda yerdan oqilona foydalanish tizimini ishlab chiqish va joriy etish
Cheklangan resurslarni taqsimlash	- energiya, suv va oziq-ovqatdan mamlakatlar va odamlar o'rtasida teng foydalanish va taqsimlanishini ta'minlash (birgalikda harakat qilish va isrofgarchilikni kamaytirish muammoni kamaytirishi mumkin)
Boshqaruvni takomillashtirishga sarmoya kiritish, qaror qabul qilish	- barqaror rivojlanish va bioxilma-xillikni saqlashga erishish maqsadida boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish; - o'zgarishlarni amalga oshirish uchun bozor kuchidan foydalanish; - biznesni ijtimoiy tadbirlarga jalb qilish
Qayta tiklanadigan energiya iqtisodiyotiga o'tish	- qayta tiklanadigan energiya manbalariga "birinchi o'rin" berish, ular barcha mamlakatlarning energetika tizimida asosiy bo'lishi va qazib olinadigan yoqilg'ilarni asta-sekin siqib chiqarishi kerak (muqobil energiya manbalari qo'shimcha ish joylarini ta'minlaydi).

<sup>8</sup> Radermacher F. Global Marshall Plan: a Planetary Contract / F. Radermacher [Электронный ресурс]. – Режим доступу: [http://www.globalmarshallplan.org/e5159/e5162/e5429/cv\\_radermacher\\_e\\_eng.doc](http://www.globalmarshallplan.org/e5159/e5162/e5429/cv_radermacher_e_eng.doc)

<sup>9</sup> Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib muallaf ishlanmasi

Samaradorlik inqilobining boshlanishi	- energiya va materiallardan foydalanish samaradorligini oshirishga yordam beradigan ko'plab g'oyalarni amalga oshirish: - transport, - uy xo'jaligi, - sanoat; - kommunal xizmatlar faoliyati; - energiya tejovchi texnologiyalarni ommaviy joriy etish
Materiallarni qayta ishlash	- barqarorlik, qayta tiklanuvchanlik, qayta ishlash va tovarlar va narsalarni ta'mirlash imkoniyatlariga e'tibor qaratish, bu esa o'z navbatida yangi ish o'rinlarini yaratish uchun asosdir.
Mamlakati ichida va undan tashqari farovonlikni tarqatish	- aholining asosiy ehtiyojlarini ta'minlashni kafolatlaydigan moliyaviy tartibga solish tizimini ishlab chiqish

UNEP loyihasiga ko'ra, yangi iqtisodiy yondashuv "yashil iqtisodiyot"ni qurish bo'yicha asosiy g'oyalarni o'z ichiga olgan Global yashil kelishuv hukumatlari o'rtasidagi kelishuvda qayd etilishi kerak. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ekspertlari kontseptsiya doirasida global iqtisodiy inqirozga, energiya va oziq-ovqat resurslaridan foydalanishni qisqartirishga yashil javoblarni ishlab chiqdilar. Ushbu javoblar transformatsiyaning tegishli yo'nalishlarida amalga oshirilayotgan "yashil iqtisodiyot"ni amalga oshirish chora-tadbirlari hisoblanadi. Atrof-muhit muhofazasi, iqlim o'zgarishiga moslashish va barqaror rivojlanishni ta'minlash "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga asoslangan bo'lib, O'zbekiston iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash jarayonida ushbu tamoyillar muhim rol o'ynaydi. Bunda, mamlakat o'zining tabiiy resurslaridan samarali foydalanish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash orqali global iqtisodiy transformatsiyalarga moslashishi lozim.

Dissertasiyaning **"Mintaqaviy iqtisodiyotda "Yashil" transformatsiya sharoitida xavfsiz rivojlanishning uslubiy asoslari"** nomli ikkinchi bobida mintaqaviy ekologik-iqtisodiy tizimlarda xavfsiz rivojlanishning metodologik modeli, iqtisodiy o'sishda ekologik cheklovlar va ularni tizimli modellashtirish yondashuvlari hamda mintaqaviy iqtisodiyotning "Yashil" o'sish omillarini indikativ baholash metodikasi ochib berilgan.

Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar natijasida har bir qo'riqxonada obyektidagi yo'qotishlarni aniqlash o'simlik guruhlari, o'sish sharoitlari, yoshi va kelib chiqishi bo'yicha o'xshash tipik biogeotsenozlarni aniqlash hamda sinov uchastkalarini tuzish usulida amalga oshiriladi. Oddiy biogeotsenozlar bo'yicha dastlabki ma'lumotlar qo'riqxonada obyektini yaratish loyihasi va har bir bunday obyekt uchun saqlanadigan "Tabiat yilnomasi" bilan belgilanadi. Rekreatsion faoliyatning iqtisodiy ta'siri va tashrif buyuruvchilar soni to'g'risidagi ma'lumotlar qo'riqxonada fondi muassasasining moliyaviy hujjatlaridan aniqlanadi. Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan tabiiy zaxira fondi obyektlarining umumiy iqtisodiy yo'qotishlari quyidagi xarajatlar summasi bilan belgilanadi:

$$B_Z = P_Z + R_Z \quad (1)$$

bu yerda,  $P_Z$  – tabiiy zaxira fondi obyektining tabiiy holatini tiklash xarajatlari yig'indisi;

$R_Z$  – qo‘riqxonada fondi muassasasining rekreatsion faoliyatidan yo‘qotilgan daromadlar.

Qo‘riqxonada fondi obyektining tabiiy holatini tiklash xarajatlari ( $P_Z$ ) xarajatlar yig‘indisi asosida hisoblanadi:

$$P_Z = A_P + A_{FV} + \sum_{i=1}^k I_i \quad (2)$$

bu yerda,  $A_P$  – tabiiy xazira fondi obyektlari ekotizimlari tarkibini o‘rganish xarajatlari;

$A_{FV}$  – qo‘riqxonada fondi ekotizimlari holatidagi o‘zgarishlarni tekshirish xarajatlari;

$I_i$  – zararning alohida qismlari uchun favqulodda vaziyat natijasida  $i$ -ekotizimga etkazilgan zarar miqdori;

$k$  – ekotizim turlari soni.

Favqulodda vaziyatlar natijasida rekreatsiya faoliyatidan yo‘qolgan daromadlardan qo‘riqxonada fondining yo‘qotishlari ( $R_Z$ ) har bir alohida muassasa uchun:

$$R_Z = \sum_{j=1}^m (Q_j^0 - Q_j^*) \quad (3)$$

bu yerda,  $Q_j^0$  – qo‘riqxonada fondining favqulodda vaziyatdagi  $j$ -chi muassasasining foydasi;


$Q_j^*$  – qo‘riqxonada fondi  $j$ -chi muassasasining favqulodda vaziyatdan keyingi foydasi.

Ishlab chiqilgan uslubiy yondashuvlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.08.2011 yildagi 242-son qarori<sup>10</sup> bilan tasdiqlangan texnogen va tabiiy favqulodda vaziyatlar oqibatlaridan yetkazilgan zararni baholashning amaldagi metodologiyasini tayyorlashda foydalaniish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqot holatining iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash uchun iqtisodiyotning ekologik transformatsiyasini o‘rganishning uslubiy asosi “Tabiiy muhit” va “Iqtisodiyot” ikkita funktsional o‘zaro bog‘langan va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bloklardan tashkil topgan tabiiy va iqtisodiy tizimlarni tahlil qilishning tizimli yondashuvidir. Iqtisodiyotning ekologik transformatsiyasi salohiyatini klasterli tahlil qilish uchun modellashtirish mexanizmi taklif qilingan (2-rasm), unda mavjud axborotni amaliy tahlil qilish usullari ko‘rsatilgan.

Ushbu metodologik yondashuvning o‘ziga xos xususiyati iqtisodiy xususiyatlar va texnogen ta‘sir va tabiiy muhitning xususiyatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni iqtisodiy xavfsizlik manbai va bir vaqtning o‘zida antropogen ta‘sirni oluvchi sifatida birlashtirishdir. Birinchi turdagi ma‘lumotlar, albatta, ma‘muriy-hududiy birliklar, aholi punktlari yoki xo‘jalik obyektlarining jamoalari hududlari bo‘yicha, tabiiy landshaftlar, daryolar havzalari, geologik tuzilishi, ekotizimlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar esa tabiiy rayonlashtirish bo‘yicha taqdim etiladi.

---

<sup>10</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2011-yil 24-avgust, 242-son qarori <https://lex.uz/acts/-185728>



**2-rasm. Iqtisodiyotni ekologik o'zgartirish imkoniyatlarini klasterli tahlil qilishning tarkibiy modellashtirish mexanizmi<sup>11</sup>**

Tabiiy va iqtisodiy tizimlarni modellashtirish geografik axborot tizimida konturlarni kesish usuli bilan amalga oshiriladi, bu bizga O'zbekiston Respublikasi hududi uchun iqtisodiy xususiyatlar va texnogen ta'sir nuqtai nazaridan ham, tabiiy muhitning xususiyatlari bo'yicha ham yetmishta ichki bir hil hududlarni aniqlash imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasida qayta tiklanadigan energiyaning texnik jihatdan erishiladigan salohiyatini iqtisodiy baholashning klasterli tahlili metodologiyasi "qo'shimcha qiymat" nazariyasiga muvofiq amalga oshiriladi, unga ko'ra butunning qiymati uning tarkibiy qismlari qiymatlari yig'indisiga teng:

$$I_p = \sum(W_p, E_p, G_p, B_p) \quad (4)$$

bu yerda,  $W_p$  – joriy "yashil" tarif bo'yicha shamol energiyasining o'ziga xos texnik erishish mumkin bo'lgan salohiyati;

$E_p$  – amaldagi "yashil" tarif bo'yicha quyosh energiyasining o'ziga xos texnik erishilishi mumkin bo'lgan salohiyati;

$G_p$  – amaldagi "yashil" tarif bo'yicha kichik gidroenergetikaning o'ziga xos texnik erishiladigan salohiyati;

$B_p$  – joriy "yashil" tarif bo'yicha bioenergiyaning o'ziga xos texnik jihatdan erishish mumkin bo'lgan salohiyati.

Texnik jihatdan erishiladigan potensial deganda zamonaviy texnik vositalar yordamida olinishi mumkin bo'lgan umumiy potensial energiyaning bir qismi tushuniladi.

Dissertatsiyaning "**Mintaqaviy iqtisodiyotda "Yashil iqtisodiyot" asosida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlari**" deb nomlangan uchinchi bobida mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikning institutsional va ekologik omillari, mintaqa darajasida iqtisodiy xavfsizlikning barqarorlik ko'rsatkichlarini shakllantirish hamda

<sup>11</sup> Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib muallaf ishlanmasi

mintaqalararo iqtisodiy xavfsizlik tizimida ekologik integratsiyaning o'ri va mexanizmlari to'g'risida bayon etilgan.

Eng dolzarb ekologik muammolardan biri bu qattiq maishiy va ishlab chiqarish chiqindilarini olib chiqish hamda qayta ishlash bo'lib, bu ko'p jihatdan aholi punktlarining sanitariya-epidemiologik holatini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan chiqindilar miqdori bo'yicha Markaziy Osiyoda etakchi hisoblanadi, ammo uni yo'q qilish muammosi qoniqarli tarzda hal etilmayapti. Mamlakatda har yili chiqindi miqdori 1 million tonnaga yaqin oshib bormoqda, xususan, chiqindi tarkibi – bir marta ishlatiladigan idish-tovoqlar, ichimliklarning alyumin qutilari, plastik qadoqlar.

Ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2010-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda respublika bo'yicha chiqarilgan chiqindi miqdori 2024-yilda 2010-yilga nisbatan 137,7 ming tonnaga oshib 866,7 ming tonnaga yetdi. Bu borada eng yoqori darajada chiqindi chiqargan hudud Toshkent viloyati bo'lib, 2010-yilga nisbatan 207,4 ming tonnaga o'sib 465,0 ming tonnaga teng bo'ldi. Bunda Toshkent shahar hududidan chiqayotgan chiqindi ham Toshkent viloyati hududiga yig'ilishini nazarda tutish lozim.

## 2-jadval

### O'zbekiston Respublikasi va uning hududlarida atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar dinamikasi (ming. tonna)<sup>12</sup>

Hududlar	2010	2015	2020	2021	2022	2023	2024	2024 yilda 2010 yilga nisbatan o'zgarishi (+,-)
O'zbekiston Respublikasi	729	975,1	924,4	908,7	873,6	763,2	866,7	137,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	29,2	32,8	28,9	31,4	21,1	9,8	10,5	-18,7
Andijon viloyati	8,7	18,5	11,5	4,9	17,3	10,5	32,6	23,9
Buxoro viloyati	75,5	55,6	37,1	44,8	35,6	30,7	35,4	-40,1
Jizzax viloyati	23,8	70,2	3,4	2,9	27	29,5	33,1	9,3
Qashqadaryo viloyati	141,2	176,3	128,1	132,2	115,7	117,7	88,6	-52,6
Navoiy viloyati	40,3	47	48,4	68,6	41,6	35	39,2	-1,1
Namangan viloyati	5,4	7,8	15	24	7,4	5	4,4	-1
Samarqand viloyati	51,5	54,7	52,7	39,4	38,7	39,4	47,4	-4,1
Surxondaryo viloyati	3,5	3,1	6,5	7,1	7,3	7,4	10,8	7,3
Sirdaryo viloyati	21	66,1	71,8	45,7	49,1	3,1	42,5	21,5
Toshkent viloyati	257,6	370,6	430	425,4	438	430,1	465	207,4
Farg'ona viloyati	43	38,9	50,5	46,5	49,5	26,4	26,2	-16,8
Xorazm viloyati	4,8	5	6,8	7,2	4,5	3,4	9,9	5,1
Toshkent shahri	23,5	28,5	33,7	28,6	20,8	15,2	21,1	-2,4

Respublika hududlari bo'yicha eng kam atmosferaga chiqindi chiqaradigan hudud bu – Namangan viloyati bo'lib 2010-2024-yillarda o'rtacha 9,9 ming tonnadan chiqarayotgani aniqlandi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, 2010-yildan 2024-yilga nisbatan Qashqadaryo viloyatida – 52,6 ming tonnaga, buxoro viloyatida – 40,1 ming tonnaga kamaytirib ijobiy natijaga erishildi.

<sup>12</sup> Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib muallaf ishlanmasi

O‘zbekiston Respublikasida chiqindixonalar uchun 160 ming gektardan ortiq yer ajratildi. Yiliga to‘plangan 50 million m<sup>3</sup> dan ortiq qattiq maishiy chiqindining (SWW) faqat 3 foizi qayta ishlanadi. Qolganlari esa hech qanday ekologik talablarga javob bermaydigan poligonlarga tashlanadi. Ko‘pgina axlat saqlash joylari allaqachon o‘z resurslarini tugatgan: 242 tasi ishlamayapti, 248 tasi ortiqcha yuklangan, 1100 tasi esa ekologik xavfsizlik standartlariga javob bermaydi. Prezidentning 2023-yil 31 maydagi 171-son Qaroriga asosan “Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi” davlat muassasasi tashkil etilib, chiqindi poligonlari boshqaruvini tizimlashtirish, modernizatsiya qilish hamda optimallashtirish vazifasi yuklatilgan edi.

Hozirda jami 184 ta maishiy chiqindi poligonidan 39 tasi tartibga keltirilib, o‘rtacha 70-80 sm tuproq qatlami bilan yopildi, aholi salomatligi, atrof-muhit va ekologiyaga salbiy ta‘siriga chek qo‘yilib, yerlar tabiatga qaytarildi. Joriy yilning birinchi choragida Toshkent, Namangan, Andijon, Buxoro, Sirdaryo, Samarqand, Farg‘ona va Qashqadaryo viloyatlarining jami 14 ta tumanda joylashgan qattiq maishiy chiqindi poligonlarida surish, zichlash, tekislash ishlari amalga oshirildi. Qolaversa, manzilli dastur asosida 37 ta chiqindi poligoni avtotarozi va kuzatuv kameralari bilan jihozlanmoqda. Shuningdek, 2025-yil davomida 18 ta chiqindi poligonini rekultivatsiya qilib, tuproq qatlami bilan yopish maqsad qilingan. “Yashil makon” umummilliy dasturi doirasida respublika bo‘yicha 2024-yilda 123 ta chiqindi poligoni atrofida 461,0 ming tup hamda 2025-yil bahor mavsumida 130 ta chiqindi poligoni atrofida 367,7 ming tup terak, tut, qayrag‘och, saksoy, tol va boshqa turdagi daraxt ko‘chatlari ekilib, “yashil belbog‘”lar tashkil etildi<sup>13</sup>.

Kelgusida 970 gektar yer maydonini rekultivatsiya qilib, tabiatga qaytarish, yiliga 58,5 mln tonna gaz sizib chiqishi hamda yong‘in xavfini oldini olish, sizot suvlarining atmosfera havosiga salbiy ta‘sirini o‘rtacha 78 foizga kamaytirish, 116 ta shahar va tumanlarda sohadagi holatni to‘liq yaxshilashga erishish rejalashtirilgan. O‘zbekiston Respublikasi rivojlanishining tibbiy-demografik, ekologik-texnogen va ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yigirma yil davomida (2020-2024) dinamikada birgalikda tahlil qilish bizga ekologik omillarning davlatning iqtisodiy xavfsizligiga milliy darajada ta‘sirini aniqlash imkonini berdi (3-jadval).

### 3-jadval

#### O‘zbekiston Respublikasida tibbiy va demografik ko‘rsatkichlarning tuzilishi va dinamikasi<sup>14</sup>

Ko‘rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024	2020 yilga nisbatan 2024 yil farqi foizda
Umumiy aholi, ming kishi	34558,9	35271,3	36024,9	36799,8	37543,2	108,6
Yosh toifasi 0-14 yosh, ming kishi	10175,8	10518,9	10835,5	11138,6	11400,1	112,0
Yosh toifasi 25-49 yosh, ming kishi	12979,5	13189,1	13368,0	13493,0	13618,9	104,9
65 yoshdan oshgan yosh toifasi, ming kishi	1698,5	1805,1	1927,1	2074,8	2230,7	131,3
Aholining tabiiy o‘sishi, ming kishi	730,7	760,1	789,2	752,0	666,2	91,2

<sup>13</sup> 80 gektardan ortiq yer maydoni chiqindi poligonlaridan tabiatga qaytarildi. <https://gov.uz/oz/eco/news/view/50764>

<sup>14</sup> Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib muallaf ishlanmasi

I yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi darajasi (1000 kishiga)	9,2	8,7	8,5	9,0	9,4	102,2
O'rtacha umr ko'rish, erkaklar, yillar	71,7	72,1	72,5	72,9	71,2	99,3
O'rtacha umr ko'rish, ayollar, yillar	75,8	76,6	76,9	77,3	75,5	99,6
O'lganlar soni, ming kishi	174,5	172,1	172,8	174,4	175,6	100,6
Qon aylanish tizimi kasalliklaridan vafot etganlar soni, ming kishi	107,7	107,3	109,1	107,9	105,5	98,0
Neoplazmalardan o'lganlar soni, ming kishi	13,8	13,4	13,7	15,0	15,3	110,9
Nafas olish tizimi kasalliklaridan vafot etganlar soni, ming kishi	12,0	12,1	8,4	8,2	12,7	105,8
Kasallik, ming kishi	19368,0	20882,9	21681,7	21959,8	18677,7	96,4
Aholining qon aylanish tizimi kasalliklaridan kasallanishi, ming kishi	975,9	1181,8	1205,0	1366,0	1391,6	142,6
Neoplazmalardan aholining kasallanishi, ming kishi	336	342	349	357	364	108,3
Aholining nafas olish organlari kasalliklari bilan kasallanishi, ming kishi	4 585,8	4 598,1	4 682,6	4 695,1	4 466,1	97,4
Favqulodda vaziyatlar natijasida halok bo'lgan, odamlar	120	140	160	150	130	108,3
Favqulodda vaziyatlar natijasida jarohatlanganlar, odamlar	300	350	400	370	320	106,7

3-jadvaldagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasining umumiy aholisi belgilangan davrda deyarli 2984,3 ming kishiga, ya'ni 8,6 foizga oshdi. Bundan tashqari, 14 yoshgacha bo'lgan bolalar soni 1224,3 ming nafarga o'sdi. 25 yoshdan 44 yoshgacha bo'lgan tug'ilishga layoqatli mehnatga layoqatli aholi soni esa 639,4 ming kishiga oshdi, keksa yoshdagi (65 yoshdan oshgan) esa sezilarli darajada – 2230,7 ming kishidan 1698,5 ming kishiga, ya'ni 31,3 foizga oshdi. Aholining tabiiy o'sishi yiliga 730,7 ming kishidan - 666,2 ming kishiga qisqardi, so'nggi o'n yillikda esa aholining qisqarishi sezilarli darajada oshdi.

Albatta, milliy miqyosda umumlashtirilgan statistik ma'lumotlardan foydalangan holda ekologik va texnogen omillarning demografik ko'rsatkichlarga bevosita ta'sirini aniqlash noto'g'ri, lekin yigirma yil davomidagi dinamikani tahlil qilish individual tendensiyalarni aniqlash imkonini beradi. Xususan, ushbu davrda o'limlar soni ham mutlaq ko'rsatkichlarda, ham nisbiy ko'rsatkichlarda (0,6%) o'sdi, ammo neoplazmalardan va nafas olish kasalliklaridan o'limlar soni mos ravishda 10,9% ga oshdi, qon aylanish tizimi kasalliklaridan o'lim 2,0% ga kamaydi. Emissiya va chiqindilar hajmi kamayganligi sababli, biz ko'rsatilgan statistik parametrlar o'rtasidagi bog'liqlik haqida gapira olmaymiz. Umumiy kasallanish ham 3,6% ga va kasalliklarning har bir guruhi bo'yicha ham u kamaydi.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi mutaxassislarining kuzatishlariga ko'ra, favqulodda vaziyatlardan jabrlanganlar va halok bo'lganlar soni (tabiiy va texnogen) har yili ko'proq yoki kamroq barqaror bo'lib qolmoqda va indikativ yillarga ko'ra, favqulodda vaziyatlar orqali halok bo'lganlar soni o'rtacha 140 kishiga teng. Aniq ma'lumotlar ekologik va texnogen tahdidlarning umumiy

tendensiyasini tahlil qilish imkonini beradi. 4-jadvalda keltirilgan ko‘rsatkichlar sanoat iqtisodiyotining atrof-muhitga texnogen ta‘sirining salbiy ta‘sirini tavsiflaydi.

Besh yil davomida salbiy texnogen ta‘sirning barcha ko‘rsatkichlari 2-3 baravar kamaydi, bu sanoat ishlab chiqarishining qisqarishi va oldindan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar bilan bog‘liq. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining salbiy ta‘siri, xususan, yerlarning sho‘rlashi va erroziyaning kuchayishi kabi ko‘rsatkich (2,0 %ga oshgan) bilan tavsiflanadi. Ularning qisqarishi atrof-muhitga salbiy ta‘sirni minimallashtirish nuqtai nazaridan shubhasiz ijobiy tendensiyadir.

#### 4-jadval

### O‘zbekiston Respublikasida ekologik va texnogen tahdidlar ko‘rsatkichlarining tuzilishi va dinamikasi<sup>15</sup>

Tahdid	2020	2021	2022	2023	2024	2020 yilga nisbatan 2024 yil farqi foizda
Atmosfera chiqindilari (ming tonna)	900	909	894	874	846	94
Mobil manbalardan atmosfera chiqindilari (ming tonna)	1,26	1,32	1,38	1,43	1,49	118,3
Stasionar manbalardan atmosfera chiqindilari (ming tonna)	1.03	1.08	1.12	1.17	1.22	118,4
Ifloslangan va tozalanmagan suv chiqindilari (ming m3)	450	470	490	510	530	117,8
Buzilgan yerlar (ming gektar)	980	985	990	995	1000	102,0
Qayta tiklangan yerlar (ming gektar)	10	12	14	16	18	180,0
Ishlab chiqarilgan chiqindilar (ming tonna)	120	125	130	135	140	116,7
1–3 xavfli toifadagi chiqindilar (ming tonna)	15	15.5	16	16.5	17	113,3
Qo‘riqxonalar fondi (ming gektar)	3200	3220	3240	3260	3280	102,5
O‘rmonlarni qayta tiklash (ming gektar)	25	28	30	32	35	140,0
O‘rmon maydoni (million gektar)	3.2	3.25	3.3	3.35	3.4	106,2
Favqulodda vaziyatlar soni	350	370	390	380	360	102,9

Vaqt oralig‘ida salbiy ta‘sir hajmi, xususan, atmosferaga, xususan, stasionar manbalardan chiqindilar, sanoat tarmoqlarida suvning tozalanmasdan oqizilishi, tuproqning degradatsiyasi sanoatning iqtisodiy salohiyati va o‘shini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar - aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot va inson taraqqiyoti indeksi bilan juda mos keladi. Shunday qilib, milliy darajadagi umumlashtirilgan statistik ma‘lumotlarga asoslanib, ishlab chiqarish hajmining bilvosita ko‘rsatkichlari va atrof-muhitga salbiy texnogen ta‘sir darajasi o‘rtasidagi aniq bog‘liqlik haqida gapirish mumkin. Biologik xilma-xillik va biologik turlarni saqlash ko‘rsatkichi bo‘lgan qo‘riqxonalar fondi maydoni tahlili uning ikki baravardan ortiq – 2000-yildagi 3200 ming gektardan 2024-yilda qariyb 3280 ming gektargacha o‘shini aniqlandi.

O‘zbekiston Respublikasida o‘rmonlar maydoni 90-yillarning boshlarida qisqara boshladi va 2020-yillarda o‘rmonlarni qayta tiklash jarayonida u ko‘paydi. Bu O‘zbekiston Respublikasi ekologik xavfsizlik sohasida Jahon standartlariga yaqinlashayotganidan dalolat beradi. Fazoviy nuqtai nazardan, salbiy ekologik va texnogen ta‘sir hajmi sanoat rivojlanishining hududlari bilan bog‘liq. Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasi yer tuzilmasida degradatsiyaga uchragan va boshqa unumdor bo‘lmagan tuproqlar ekin maydonlarining bir qismi sifatida 1,0 million

<sup>15</sup> Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib muallaf ishlanmasi

gektardan oshadi yoki ekin maydonlarining 2,0 foizini tashkil qiladi. Bunday yerlardan foydalanishdan to'g'ridan-to'g'ri yillik yo'qotishlar (ya'ni, yalpi mahsulot qiymati va uni olish xarajatlari o'rtasidagi farq) o'rtacha 35,4 so'm / ga yoki umuman O'zbekiston bo'yicha taxminan 543 million so'mga etadi.

O'zbekiston va uning hududlarida yer degradatsiyasining asosiy omillaridan biri tuproq eroziyasidir. Tuproq eroziyasidan kelib chiqadigan ekologik va iqtisodiy yo'qotishlar yiliga 11,3 milliard so'mdan oshadi. Suv eroziyasidan salbiy ta'sir ko'rsatgan qishloq xo'jaligi yerlarining maydoni 13,3 million gektarni, shu jumladan, 10,6 million gektar haydaladigan yerlarni (umumiy yer maydonining 32 foizini) tashkil etadi.

Eroziyaga uchragan yerlar 4,5 million gektar o'rta va yuqori darajada eroziyalangan tuproqlarni o'z ichiga oladi, shundan 68 ming gektar o'zining gumus gorizontini butunlay yo'qotgan. Qora yer va ularga yaqin tuproqlarda eroziya jarayonlarining ko'lami va intensivligi unumdorligi bilan alohida tashvish uyg'otadi. Gumusning o'rtacha yillik yo'qotilishi 14 million tonna, harakatlanuvchi fosfor va almashinadigan kaliyning har biri 0,05 million tonnani tashkil etadi. Planar eroziya bilan bir qatorda chiziqli eroziya va jar hosil bo'lish jarayonlari ancha intensiv tarqalmoqda. Faol ishlayotgan jarliklar maydoni 141,1 ming gektarni tashkil etadi, jarliklar esa 1 million gektarga yaqin atrofdagi hududlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. 2 million gektardan ortiq maydon muntazam ravishda shamol eroziyasiga, chang bo'ronlari bo'lgan yillarda esa 3,5 million gektargacha ta'sir ko'rsatadi. Tuproq eroziyasidan kelib chiqadigan zarar yiliga 4,9 milliard so'mga etadi.

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, salbiy ekologik va texnologik ta'sirlardan iqtisodiy zarar ko'rayotgan iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari qishloq va o'rmon xo'jaligi, baliqchilik va turizmdir. Eng muhim ijtimoiy oqibatlar tabiiy yoki texnologik kelib chiqadigan favqulodda vaziyatlar natijasida yuzaga keladigan uy-joyning vayron bo'lishi yoki ko'chirilishi bilan bog'liq. Shuning uchun, davlatlar tabiiy resurslaridan samarali foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishi iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada, aholi uchun muhim ijtimoiy oqibatlar inson salomatligiga zarar etkazish va yashash sharoitlarining chiqindi, ifloslangan havo, shovqin, go'zal landshaftlarning buzilishi va boshqalarning yomonlashishi bilan bog'liq (5-jadval).

### 5-jadval

#### O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning tuzilishi va dinamikasi

Ko'rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024	2020 yilga nisbatan 2024 yil farqi foizda
YaIM, %	105,4	113,6	115	103,8	104,4	99,1
Aholi jon boshiga YaIM, AQSh dollari	1 685	1 983,0	2255	2 495,6	3 092,7	183,5
Aholi jon boshiga o'rtacha jahon yalpi ichki mahsuloti, AQSh dollari (million dollar)	10600	11900	12600	13500	14210	34.1%

O'zbekiston va dunyoning aholi jon boshiga YaIM nisbati	0.187	0.19	0.205	0.214	0.223	19.3%
Favqulodda vaziyatlardan etkazilgan zarar, million AQSh dollari	220	250	270	260	240	9.1%
Tabiiy kelib chiqadigan favqulodda vaziyatlardan etkazilgan zarar, million AQSh dollari	150	170	180	175	160	6.7%
Uy-joy fondi, m2 mln	600	630	658	670	690	15.0%
Aholi jon boshiga uy-joy fondi, m2	15	16	18.2	17.4	18.0	20.0%

Orol dengizi fojiasi O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir qiluvchi maxsus ekologik omil bo'lib qolmoqda. Amalga oshirilgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy chora-tadbirlarga qaramay, Orol fojiasidan jabrlanganlar deb qonuniy tasniflangan hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy inqirozini bartaraf etish strategiyasini shakllantirish masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Zararlangan hududlarda iqtisodiy faoliyatni qonunchilik bilan rag'batlantirish paradoksni keltirib chiqardi.

Shu o'rinda Prezident o'z nutqida ekologiya va atrof-muhitni asrash, suv taqchilliginingoldiniolish bundan buyon ham dolzarb vazifa bo'lib qolishini qayd etdi. Xususan, davlat rahbari o'z nutqida "...biz dunyodagi eng katta ekologik ofat – Orol fojiasini bevosita o'z boshidankechirayotgan xalqmiz. Shuning uchun hozirgi vaqtda respublikamizda bebaho ekologik tizimni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli dasturlar, jumladan, "Yashilmakon" umummilliy loyihasi amalga oshirilmoqda...", deya qayd etdi. Shunday ekan, mazkur dasturlarni amalga oshirish orqali ekologik muammo va iqlim o'zgarishi sharoitida dunyo hamjamiyatining diqqat markazida bo'lgan Orol dengizining qurigan tubida qo'shimcha 500 ming gektar yashil maydonlarni barpo etish orqali 2026-yil yakuniga qadar ularning umumiy hajmi 2,5 million gektarga yoki hududning 78 foiziga yetkazish bilan nafaqat O'zbekistonda, balki mintaqada ekologik barqarorlik tiklanishiga erishish ta'minlanadi.o'z vaqtida ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **"Mintaqaviy iqtisodiyotda "Yashil iqtisodiyot" asosida xavfsiz rivojlanishning strategik ustuvor yo'nalishlarini shakllantirish"** deb nomlangan to'rtinchi bobida "Yashil iqtisodiyot" tamoyillari asosida mintaqaviy boshqaruv qarorlarini qabul qilishning innovatsion mexanizmlari, mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik siyosatining strategik ustuvor yo'nalishlari va ularni amalga oshirish bosqichlari va mintaqalar iqtisodiyotida "Yashil" transformatsiya asosida xavfsiz rivojlanish istiqbollari e'tibor qaratilgan.

Iqtisodiyotning ekologik o'zgarishi sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha boshqaruv qarorlarini asoslash uchun heterojen ma'lumotlarni sintez qilish tadqiqot maqsadini aniqlash uchun maxsus ishlab chiqilgan vazifalar; baholash mezonlari; tahlil omillari; tahlil parametrlarining algoritmi bo'yicha amalga oshiriladi. Ekologik vaziyatni fazoviy tahlil qilish va baholash omillarining asosiy guruhlariga quyidagilar kiradi:

- tabiiy landshaftlarning fizik-kimyoviy sharoitlari;

- tabiiy-xo‘jalik tizimlarining antropogen o‘zgarishi (tabiatdan foydalanish turlari bo‘yicha, haydaladigan yerlar foizi, texnologik sikllarga jalb qilingan yerlarning qishloq xo‘jaligini o‘zlashtirish);

- tabiiy muhitning ifloslanishi (o‘simliklarni himoya qilish va oziqlantirishning kimyoviy vositalaridan foydalanish, yer usti hamda chiqindi suvlari va atmosferaning sirt qatlamini sanoat korxonalari chiqindilari bilan ifloslanishi, radiatsiyaviy fon).

Ma‘muriy tuman doirasidagi ekologik o‘zgarishlarni baholash metodologiyasiga ko‘ra, tabiiy tizimlarning xususiyatlari va atrof-muhitga texnogen ta‘siri aniqlanadi. Landshaft turlari ma‘muriy okrug hududi uchun, ma‘muriy-xo‘jalik birliklari sifatida esa qishloq xo‘jaligi xo‘jaliklari va aholi punktlari hududlari uchun belgilanadi. Hududning ekologik holatini baholash quyidagi parametrlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

- tabiiy va iqtisodiy tizimlarning antropogen o‘zgarishi;
- tabiiy va iqtisodiy tizimlarning akkumulyatsiya qobiliyati;
- buzilgan yerlar miqdori va sanoat korxonalari chiqindilari hajmi;
- hududning radiatsiyaviy ifloslanishi.

Ushbu parametrlarning har birining aniqlangan miqdoriy xususiyatlariga asoslanib, ma‘lum bir parametrlarning umuman ekologik vaziyatga salbiy ta‘sirini aniqlaydigan koeffitsiyent hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Namangan viloyatining hududlaridagi ekologik vaziyatni fazoviy tahlil qilish va baholash bunday tadqiqotga misol bo‘la oladi.

9-jadvalda keltirilgan ma‘lumotlar asosida ta‘kidlash joizki, ortacha landshaftni saqlash koeffitsiyenti 0.56 ga teng bo‘lib, bu viloyatda tabiiy muvozanat o‘rtacha darajada saqlanayotganligidan dalolar beradi. Tog‘li hududlarda bu ko‘rsatkich yuqoriroq (6-jadval).

## 6-jadval

### Namangan viloyati tumanlarining tabiiy va iqtisodiy hududiy tizimlarini ekologik baholash koeffitsiyentlari


№	Tuman nomi	Tabiiy landshaft turi	Landshaftni saqlash qobiliyati koeff.	Antropogen o‘zgaruvch anlik (bal)	Koeff.	Buzilgan yerlar ulushi (%)	Koeff.	Tumanlar guruhlanishi	Texnogen ifloslanish koeff.	Radiatsion ifloslanish (Ci/km <sup>2</sup> )	Koeff.
1	Namangan shahri	Urban	0.35-0.50	0,70-0.85	1.1-1.2	13,7	0.5-0.7	Kuchli o‘zgar.	1.10-1.45	2.9-3.2	0.75-0.80
2	Davlatobod	Urban									
3	To‘raqo‘rg‘on	Urban-dashtli									
4	Uychi	Dashtli									
5	Mingbuloq	Dashtli									
6	Yangi Namangan	Dashtli									
7	Chortoq	Tog‘oldi	0.51-0.69	0.55-0.84	0.90-1.0	7.2	0.40	O‘rta	0.85-1.00	2.2-2.8	0.58-0.74
8	Pop	Tog‘li									
9	Norin	Dashtli									
10	Uchqurg‘on	Tog‘oldi									
11	Kosonsoy	Tog‘li									
12	Chust	Tog‘li	0.70-0.75	0.45-0.54	0.80-0.89	4.5	0.30-0.35	Barqaror	0.75-0.84	2.0-2.1	0.50-0.57
13	Yangi-qo‘rg‘on	Tog‘li									

Antropogen o'zgaruvchanlik o'rtacha 0.65 ga tengligi qayd etilgan. Bu esa inson faoliyatini ta'siri sezilarli bo'lib, bu ayniqsa urban (shahar) tumanlarda o'z aksini topmoqda. Buzilgan yerlar ulushi Namangan viloyati bo'yicha o'rtacha 8.5% ga teng bo'lib, bu nisbatan yuqori, melioratsiya va yer tiklash ishlari talab etiladi.

Quyida yuqori antropogen bosim (ya'ni ehtimoliy ekologik stress) ga ega bo'lgan tumanlar va ishonchli ma'lumotlariga asoslanadi. Eng yuqori antropogen bosim Namangan shahri— 713,385 (2025 taxmin) — katta shahar, aloqa va sanoat markazi → yuqori antropogen bosimga ega. Chust tumani — 291,430 — qishloq/shahar aralash, aholisi katta. To'raqo'rg'on— 250,727 — yuqori aholili tuman. Yangiqo'rg'on — 241,788; Pop — 239,799; Uychi — 237,543 — bular ham yuqori antropogen bosim guruhidan joy oldi.

O'rta antropogen bosimga esa Kosonsoy, Norin, Uchqurg'on — aholisi o'rtacha-yuqori, ayrim qishloq hududlari kirdi. Nisbatan past antropogen bosimga esa, Mingbuloq, Chortoq — aholisi nisbatan kamroq va tog'oldi dasht hududlar va aralash bo'lganligidan — antropogen bosimi pastroq guruhga kirishini tavsiflaydi.

Texnogen ifloslanish koeffitsiyenti - 1.04 teng va bunda sanoat hamda transport chiqindilari o'rtacha yuqori darajada bo'lib, viloyatda har doim favqulotda vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rib borishini taqozo etadi. Radiatsion fon ( $2.58 \text{ Ci/km}^2$ ) — normal ekologik chegarada bo'lsada, ammo shahar atroflarida biroz ortgan (Pop tumanidagi uran konini mavjudligi). Berilgan ma'lumotlardan foydalangan holda, Namangan viloyati tumanlari bo'yicha tabiiy va iqtisodiy hududiy tizimlarni iqtisodiy va ekologik baholash haritasi Python dasturi "Namangan Gis Map" fayli asosida tuziladi (3-rasm).



**3-rasm. Namangan viloyati tumanlari bo'yicha tabiiy va iqtisodiy hududiy tizimlarni ekologik baholash ko'rsatkichlari**

Bu rasmda keltirilgan Namangan viloyati hududlarning tabiiy va iqtisodiy hududiy tizimlarni ekologik bahosi turli ranglarda berilgan bo'lib, qizil — juda yuqori antropogen bosim (Namangan shahri, Chust, To'raqo'rg'on), sariq-qizil — yuqori (Yangiqo'rg'on, Pop, Uychi), sariq — o'rta (Kosonsoy, Norin, Uchqurg'on) va yashil — past (Mingbuloq, Chortoq tumanlari) holatlar bilan tasvirlangan.

Belgilangan landshaftlarning akkumulyatsiya qobiliyatini baholash texnogen ifloslantiruvchi moddalar to'planishini ekologik baholash usullari bilan amalga oshiriladi. Landshaftning har bir turi uchun texnogen ifloslantiruvchi moddalarni to'plash qobiliyati darajasiga qarab baholash koeffitsiyenti hisoblanadi. Bunda ma'lum bir parametr bo'yicha kritik diapazondagi tuproqlarning maksimal akkumulyatsiya effektiga to'g'ri keladigan tabiiy fizik-kimyoviy xossalari hisobga olinadi.

O'rganilayotgan hudud uchun texnogen kelib chiqadigan kimyoviy ifloslantiruvchi moddalar - og'ir metallar va radionuklidlarning maksimal to'planishiga olib keladigan muhim diapazonlardagi asosiy xarakteristikalar 9-jadvalda keltirilgan. Buzilgan qishloq xo'jaligi yerlarini baholash quyidagi formula bo'yicha hisoblangan koeffitsiyent bo'yicha amalga oshiriladi:

$$L=Sg/Sp \quad (5)$$

bu yerda: Sg - alohida fermer xo'jaligining maydoni; Sp - alohida fermadagi buzilgan yerlar maydoni. Sanoat korxonalarini chiqindilari hajmining ta'sirini baholash uchun emissiya ulushi ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu aholi punktidagi sanoat chiqindilari ulushining butun hududdagi chiqindilarning umumiy hajmiga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$V=V_{Sch}/V_{USch} \quad (6)$$

Bu yerda:  $V_{Sch}$  - aholi punktida sanoat chiqindilari hajmi;  $V_{USch}$  - butun hududdagi sanoat korxonalarini tomonidan chiqindilar hajmi. Aholi punktidagi chiqindilar hajmining belgilangan ulushidan kelib chiqib, hududning texnogen ifloslanish koeffitsiyenti hisoblanadi. Aynan ular uchun ekologik vaziyatning taxminiy koeffitsiyenti individual ekologik koeffitsiyentlarni ko'paytirish yo'li bilan hisoblanadi. Ekologik vaziyat tabiiy va antropogen hududiy tizimlarning har bir turi uchun hisoblangan koeffitsiyentlar bo'yicha tartiblangan holda tavsiflanadi (7-jadval).

### 7-jadval

#### Ekologik vaziyatning sintetik hisoblangan koeffitsiyentlari

Sintetik koeffitsiyent diapazoni	Ekologik vaziyatning xususiyatlari
1,00–1,30	Qulay
1,31–1,60	Qoniqarli
1,61–1,90	Noqulay
1,91–2,20	Qoniqarsiz
> 2,21	Xavfli

Yuqoridagi 7-rasm fazoviy tahlil va ekologik vaziyatni baholashda tipologik sintez protsedurasining natijasidir. Namangan viloyatining hududlari uchun ekologik vaziyatning hisoblangan koeffitsiyentlari bilan tabiiy va iqtisodiy hududiy tizimlar aniqlandi. Shunday qilib, fazoviy tahlil va ekologik vaziyatni baholash natijasida hududiy tabiiy va antropogen tipologik tizimlar aniqlanadi, ular keyinchalik tadqiqot maqsadiga erishishning muhim parametrlari sifatida baholanadi.

Bu o'rganilayotgan hududning ekologik holatini tipologik rayonlashtirish va xaritalashni amalga oshirish imkonini beradi. GISni modellashtirish ekologik tahdidlar sharoitida magistral gaz quvurlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash kabi

jarayonlar uchun keng qo'llaniladi. Ushbu sohada geografik axborot tizimlarini qo'llash metodologiyasi va texnologiyasi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mavjud.

Iqtisodiyotning ekologik o'zgarishlari sharoitida iqtisodiy xavfsizlik sohasida boshqaruv qarorlarini qabul qilishni ilmiy asoslash uchun GISni modellashtirish maqsadida klasterli tahlil usuli taklif etiladi. Milliy darajada boshqaruv qarorlarini qabul qilishni asoslash uchun tabiiy va iqtisodiy tizimlarning GIS yaratiladi, unda ichki bir hil fazoviy klasterlar ajratiladi. Klaster tahlil usulini qo'llash harakatlar ketma-ketligi va mazmunini aniq belgilashni talab qiladi.

Birinchidan, modellashtirish natijalarining o'ziga xos iste'molchisini aniqlash kerak. Minimal ma'muriy-hududiy birlik tuman hisoblanadi. Shu bilan birga, davlat siyosatini amalga oshirish vertikal ravishda hududiy davlat boshqaruvi organlari orqali amalga oshiriladi va ma'muriy viloyatlar hududlari bo'yicha ham iqtisodiy faoliyat, ham texnogen ta'sir darajasi to'g'risida ma'lumotlar yig'iladi.

Ikkinchidan, fazoviy tadqiqotlarning metodologik asoslarini aniqlash zarur - bu tabiiy-iqtisodiy hududiy tizim bo'lib, u "Iqtisodiyot", "Tabiat" funktsional bloklaridan iborat.

Uchinchidan, axborotning xususiyatlarini aniqlash kerak. "Iqtisodiyot" bloki uchun bular iqtisodiyotning turli tarmoqlarining alohida korxonalari, ishlab chiqarish hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar, atmosferaga chiqindilarning tarmoq hududiy tuzilishi va ekologik ko'rsatkichlari, suv muhitiga chiqindilar, chiqindilarni saqlash, tuproq ifloslanishi, texnogen kelib chiqadigan favqulodda vaziyatlar va boshqalardan iborat. Bu borada shuningdek, shamolning chastotasi, yo'nalishi, daryolarning suv balansi, suv miqdori, toshqin davri, gidropotensial va boshqalar), qishloq xo'jaligi (chirindi, tuproq turi, uning mexanik tarkibi, ishqoriyligi, azot, kaliy va fosfor miqdori, relyef xususiyatlari, o'simliklari, tuproqlari, geologik tuzilishi, er osti suvlari, faunasi, landshafti va geokimyoviy xususiyatlari, hududning landshaft va geokimyoviy xususiyatlari, muhofaza qilinadigan hududlar turi va boshqalarni ham keltirish mumkin.

To'rtinchidan, axborotni olish manbalari va shakllarini aniqlash kerak. "Iqtisodiyot" bloki uchun bu ma'muriy-hududiy tumanlar va viloyatlarning chegaralari. "Tabiat" bloki uchun ma'lumot manbai hududni landshaft turlari, mintaqalar, hududlar, zonalar va boshqalar bo'yicha fizik-geografik rayonlashtirish hisoblanadi.

Beshinchidan, ehtiyojlar bilan belgilanadigan tadqiqot ko'lamini aniqlash zarur. Ishning maqsadlariga muvofiq ekologik o'zgarishlar sharoitida davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash choralarini belgilash zarur. Bunday chora-tadbirlar o'ziga xos hududiy jihatga ega bo'lgan va milliy darajada qabul qilinishi kerak bo'lgan qarorlardir.

Iqtisodiyotning ekologik o'zgarishi davlatning iqtisodiy xavfsizlik siyosatini faol shakllantirish sharoitida amalga oshirilishi mumkinligi aniqlandi. Shunday qilib, iqtisodiy xavfsizlik sohasida boshqaruv qarorlarini asoslashning innovatsion yondashuvlaridan biri bu O'zbekiston Respublikasining "yashil iqtisodiyoti" ning etakchi tarmoqlaridan biri - qayta tiklanadigan energiyaning texnik jihatdan erishilishi mumkin bo'lgan va iqtisodiy salohiyatini baholash imkonini beruvchi GIS modellashtirishdir.

Iqtisodiyotning siklik rivojlanishi tufayli tarkibiy va institutsional o'zgarishlar dinamikasi rivojlanishning ham barqaror, ham inqirozli bosqichlarining paydo

bo'lishiga olib keladi. Aynan inqirozli vaziyat integral ko'rsatkich dinamikasi asosida iqtisodiy xavfsizlik darajasini baholashning nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirish muammosini dolzarblashtiradi. Iqtisodiy-ekologik xavfsizlik darajasini baholash va kelgusi istiqbolni belgilash uchun mavzu doirasida 2009-2024 yillar uchun Namangan viloyati statistika boshqarmasidan olingan yalpi hududiy mahsulot hajmi – Yni o'zgarishiga ta'sir etuvchi viloyat tomonidan atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar dinamikasi – X1, atmosfera havosini o'zgarishida yuzaga keladigan viloyatda yuqori va quyi nafas yo'llarining o'tkir infeksiyalari bilan kasallanish – X2, aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi – X3 va viloyatda iqtisodiyotda bandlar soni – X4 ko'rsatkichlar tanlab olingan.

Ushbu ko'rsatkichlar asosida ekonometrik tahlil olib borish va prognoz indekslarini aniqlash uchun avvalambor ular to'g'ri tanlanganligini tasdiqlash lozim. Buni natijaviy va tanlangan omillar o'rtasida korrelyatsiya koeffitsiyenti qiymatlarini aniqlash bilan tekshiriladi (8-jadval).

**8-jadval**

**Namangan viloyati yalpi hududiy mahsulot hajmi o'zgarishining omillar o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti qiymatlari**

	Y	X1	X2	X3	X4
Y	1				
X1	0,96822	1			
X2	-0,81291	-0,31144	1		
X3	0,992917	0,452798	-0,62478	1	
X4	0,955655	0,592298	-0,68625	0,764447	1

8-jadval qiymatlariga ko'ra, Namangan viloyati yalpi hududiy mahsulot hajmi – Y atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar dinamikasi – X1( $r_{Y,X1}=0,96822$ ), aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi – X3( $r_{Y,X1}=0,992917$ ) va viloyatda iqtisodiyotda bandlar soni – X4( $r_{Y,X4}=0,955655$ ) soni bilan kuchli zichlikda to'g'ri bog'langan. Viloyatda yuqori va quyi nafas yo'llarining o'tkir infeksiyalari bilan kasallanish – X2( $r_{Y,X2}=-0,81291$ ) teskari kochli zichlikda bog'langan bo'lib, albatta kasallanishning oshishi o'z navbatida YHM hajmini kamayib borishini ifoda etadi. Shunga qaramay omillar o'rtasida  $r_{X1,X2}<0,8$  shartga ko'ra multikoleniarlik mavjud emasligidan kuzatilayotgan bog'liqlik o'rtasida regressiya tenglamasini aniqlashni EViews dasturi orqali davom ettirish mumkin (9-jadval).

**9-jadval**

**Namangan viloyati yalpi hududiy mahsulot hajmi o'zgarishini regressiya tenglamasini sifat mezonlari natijasi**

Dependent Variable: LNY  
 Method: Least Squares  
 Date: 10/22/25 Time: 12:07  
 Sample: 2009 2024  
 Included observations: 16


Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
LN <sub>X1</sub>	-0.052088	0.015574	-3.34455	0.0314
LN <sub>X2</sub>	-0.147873	0.165339	-0.89436	0.0283
LN <sub>X3</sub>	1.146715	0.064820	17.69065	0.0000
LN <sub>X4</sub>	2.901658	1.276819	2.272568	0.0441

C	-19.920543	8.548461	-2.33013	0.0354
			$t_{jad} = 2,201$	
R-squared	0.996999	Mean dependent var		9.596965
Adjusted R-squared	0.995908	S.D. dependent var		1.067773
S.E. of regression	0.068302	Akaike info criterion		-2.279460
Sum squared resid	0.051316	Schwarz criterion		-2.038026
Log likelihood	23.23568	Hannan-Quinn criter.		-2.267096
F-statistic	913.7387	Durbin-Watson stat		1.977143
Prob(F-statistic)	0.000000		$F_{jad} = 5,9358$	

Jadvalda keltirilgan Koeffisient ustunidagi qiymatlardan foydalangan holda quyidagi tenglamani hosil qilinadi:

$$\ln Y = -0,05209 \ln X_1 - 0,15 \ln X_2 + 1,15 \ln X_3 + 2,9 \ln X_4 - 19,91905 \quad (7)$$

Aniqlangan 1-regressiya tenglamasi parametrlarini t-Statistic mezonlari bo'yicha ahamiyatligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak,  $\alpha=0,05$  va  $df=11$  bo'lgan holda  $t_{jad}=2,21$  ga tengligidan faqatgina yuqori va quyi nafas yo'llarining o'tkir infeksiyalari bilan kasallanish omilining parametri o'rnatilgan ( $t_{x2}=0.89 < t_{jad}=2,21$ ) shartga ko'ra ahamiyatsiz bo'lib, qolgan parametrlarning barchasi haqiqatdan ham ahamiyatli. Shu bois yuqori va quyi nafas yo'llarining o'tkir infeksiyalari bilan kasallanish omilining parametrini ahamiyatli yoki ahamiyatsizligini retrospektiv sifat mezonlari MAPE (Mean Absolute Percentage Error – o'rtacha mutloq foiz xatosi) va TIC (Tayl inequality coefficient – Teyl prognoz aniqligining muqobil o'lchovi) bilan tekshirish talab etiladi (4-rasm).



#### 4-rasm. 7-regressiya parametrlarini retrospektiv sifat mezonlari bilan tekshirish natijasi

4-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga asosan ta'kidlash mumkinki,  $MAPE=0,509$  bo'lib, bu o'z navbatida  $MAPE=0,509 < 10\%$  prognoz aniqligi yuqori va  $TIC=0,0029 < 1$  shartning bajarilishidan kelib chiqadiki, 7-regressiya tenglamasi parametrlarining barchasini ahamiyatligi kelib chiqadi. Amaliyotda hisob-kitob jarayonlarini osonlashtirish va Logarifmik xossalarga hamda natijalar aniqligiga erishish uchun yuqorida hosil qilingan 7-regressiya tenglamasini potensirlab olinadi va unga ko'ra quyidagi tenglama hosil qilinadi:

$$Y = \frac{X_3^{1,15} * X_4^{2,9}}{X_1^{0,05209} * X_2^{0,15} * e^{19,9205}} \quad (7^*)$$

Hosil qilingan 7\*-regressiya tenglamasini haqiqatdan ahamiyatligini  $\alpha=0,05$  va  $k_1=11$ ;  $k_2=4$  bo'lganda  $F_{Jad}=5,9358$  ga tengligini e'tiborga olgan holda hisoblangan Fisher qiymati  $F_{his}=913,7$  tengligidan  $F_{Jad} < F_{his}$  shartga binoan 7\*-regressiya tenglamasining ahamiyatligi hamda  $DW=1,977$  teng bo'lganligi bois, avtokorrelyatsiya mavjud emasligidan tenglamaning ishonchli va adekvatligi kelib chiqadi.

Aniqlangan 7\*-regressiya tenglamasini iqtisodiy jihatdan izohlaydigan bo'lsak, agar tanlangan har bir ko'rsatkichni jumladan, aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi va viloyatda iqtisodiyotda bandlar sonini 1,0 %ga oshirilganda Namangan viloyati yalpi hududiy mahsulot hajmi mos ravishda qo'shimcha 804,7 mlrd. so'mga va 2046,9 mlrd. somga oshishi kuzatildi. Bu esa, aholining real daromadlari ortishi iqtisodiyotning ichki talabini kengaytirib, ishlab chiqarish hajmini oshirishga, xizmatlar sohasining rivojlanishiga va natijada hududiy iqtisodiy o'sishga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Shuningdek, mehnat resurslaridan samarali foydalanishning, yangi ish o'rinlari yaratilishining va ishlab chiqarish quvvatlarining kengaytirilishining iqtisodiy o'sishga kuchli rag'batlantiruvchi ta'sirini aks ettiradi.

Ikkinchi tomondan regressiya natijalari ekologik omillar ham iqtisodiy natijalarga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Xususan, atmosferaga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalar hajmining oshishi YaHM hajmini 36,2 mlrd so'mga kamaytiradi, bu esa ekologik muammolar iqtisodiy faoliyatning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Atmosfera havosining ifloslanishi natijasida yuqori va quyi nafas yo'llari kasalliklari bilan kasallanish darajasi ortishi esa YaHMni 104,2 mlrd so'mga kamaytirishi aniqlangan. Bu holat ekologik salomatlik muammolari iqtisodiy samaradorlikni pasaytirib, mehnat unumdorligi va ishchi kuchining faoliyat qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.

